YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕНОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмудходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G'., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНА	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH.....	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Urkinbaev T. A.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLON BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI

O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich

Bank-moliya akademiyasi tayanch doktoranti,
Xalqaro Nordik universiteti katta o'qituvchisi
[ORCID: 0009-0009-5112-5579](https://orcid.org/0009-0009-5112-5579)

Annotatsiya. Mazkur maqola orqali muallif investitsion faollik va jozibadorlik tushunchalarini nazariy jihatdan aniqlashtiradi, hududiy baholash uchun indikatorlar tizimini taklif etadi hamda yashil iqtisodiyot sharoitida investitsiya oqimlarini rag'batlantirishning institutsional va infratuzilmaviy shartlarini asoslaydi. Maqolada xalqaro tajriba va siyosiy-amaliy yondashuvlar (investitsiya muhiti, ishonch, rag'batlar samaradorligi, barqaror investitsiya) nuqtayi nazaridan hududlararo tafovutlarning iqtisodiy sabablari muhokama qilinadi. Natijalar hududiy investitsiya siyosatini "faqat hajm" emas, "sifat va barqarorlik" mezonlari bilan boshqarish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: investitsion faollik, investitsion jozibadorlik, hududiy rivojlanish, yashil investitsiyalar, investitsiya siyosati, institutsional sifat.

Abstract. This article theoretically clarifies the concepts of investment activity and investment attractiveness, proposes a system of indicators for regional assessment, and substantiates the institutional and infrastructural conditions for stimulating investment flows in the context of a green economy. The paper discusses the economic causes of interregional disparities from the perspective of international experience and policy-oriented approaches, including the investment climate, trust, effectiveness of incentives, and sustainable investment. The results provide recommendations for managing regional investment policy based not only on volume, but also on quality and sustainability criteria.

Key words: investment activity, investment attractiveness, regional development, green investments, investment policy, institutional quality.

Аннотация. В статье проводится теоретическое уточнение понятий инвестиционной активности и инвестиционной привлекательности, предлагается система индикаторов для региональной оценки, а также обосновываются институциональные и инфраструктурные условия стимулирования инвестиционных потоков в условиях зелёной экономики. На основе международного опыта и политико-прикладных подходов рассматриваются экономические причины межрегиональных различий, включая инвестиционную среду, уровень доверия, эффективность стимулов и устойчивые инвестиции. Полученные результаты содержат рекомендации по управлению региональной инвестиционной политикой с ориентацией не только на объём, но и на критерии качества и устойчивости.

Ключевые слова: инвестиционная активность, инвестиционная привлекательность, региональное развитие, зелёные инвестиции, инвестиционная политика, институциональное качество.

KIRISH

So'nggi yillarda investitsiya siyosati dunyo miqyosida "ko'proq kapital jalb qilish" maqsadidan "barqaror, inklyuziv va yashil o'sishni ta'minlaydigan kapitalni jalb qilish" paradigmasiga siljimoqda. Bunda investitsiya oqimlarining hududlar kesimida adolatli va samarali taqsimlanishi muammosi alohida dolzarblik kasb etadi:



agar investitsiyalar ayrim hududlarda “to‘planib” qolsa, boshqa hududlar esa chetda qolsa, iqtisodiy tafovutlar chuqurlashadi va ijtimoiy tengsizlik kuchayadi [1].

Hududiy investitsion faollik iqtisodiy o‘shishning “ichki mexanizmi” sifatida ko‘riladi: u ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi, ish o‘rinlari yaratadi, infratuzilma sifatini oshiradi va mahalliy budjet salohiyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga, investitsiya faolligi bir xil bo‘lmaydi: uning intensivligi hududning resurs bazasi, bozor hajmi, logistika qulayligi, kadrlar salohiyati, boshqaruv sifati va tartibga solish barqarorligiga bog‘liq [2].

Investitsion jozibadorlik esa investor qarorining “filtri” bo‘lib xizmat qiladi: investor hududni tanlar ekan, kutilayotgan daromad bilan birga riskni, ya’ni huquqiy aniqlik, shartnomalar ijrosi, soliq va bojxona tartiblarining prognoz qilinishi, infratuzilma ishonchligi, resurslar va mehnat bozori sifatini baholaydi. Shu nuqtayi nazardan, investitsion faollik ko‘proq “natija” bo‘lsa, jozibadorlik ko‘proq “shart-sharoitlar majmuasi”dir; ammo amalda ular bir-birini kuchaytiradi yoki susaytiradi [3].

Yashil iqtisodiyot kontekstida hududiy investitsion jozibadorlikka ekologik omillar ham qo‘shiladi: energiya samaradorligi, chiqindilar boshqaruvi, suv resurslari barqarorligi, “toza” texnologiyalarni joriy etish imkoniyati va atrof-muhit talablari investor uchun raqobat ustunligiga aylanishi mumkin [4]. Shunday ekan, hududlar kesimida investitsion faollik va jozibadorlikni tahlil qilish nafaqat iqtisodiy o‘shishni, balki uning sifati va barqarorligini boshqarish uchun ham zarur.

Mazkur maqolaning maqsadi:

1. investitsion faollik va jozibadorlik tushunchalarini hududiy kesimda aniq chegaralash;
2. baholash indikatorlari tizimini taklif etish;
3. hududlararo tafovutlarning ehtimoliy sabablarini institutsional-infratuzilmaviy omillar orqali izohlash;
4. yashil investitsiyalarni ko‘paytirish sharoitida hududiy investitsiya siyosatiga amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsion jozibadorlik bo‘yicha klassik yondashuvlar investor motivatsiyasini joylashuv (location) omillari bilan bog‘laydi. Dunning va Lundan ko‘p millatli korxonalar qarorlarida joylashuv ustunliklari (bozor, resurs, infratuzilma, institutlar) hal qiluvchi o‘rin tutishini ko‘rsatadi; bu yondashuv hududiy jozibadorlikni “omillar portfeli” sifatida ko‘rishga imkon beradi [5]. Demak, hudud faqat resurslar yig‘indisi emas, balki tartib-qoidalar va institutlar uyg‘unlashgan tizimdir.

Rag‘batlar va imtiyozlar masalasida adabiyotlar ehtiyotkor pozitsiyani tavsiya qiladi: Blomström va Kokko investitsiya rag‘batlari (soliq imtiyozlari, subsidiyalar) har doim ham kutilgan samarani bermasligini, ayniqsa institutlar zaif bo‘lganda texnologiya va bilim oqimi avtomatik yuz bermasligini ta’kidlaydi [6]. Bu xulosa hududiy siyosatda “imtiyoz berish”ni yagona yechim sifatida ko‘rmaslik, balki institutlar va infratuzilmaga sarmoya kiritish zarurligini anglatadi.

Investitsion muhitni baholash bo‘yicha xalqaro siyosiy-amaliy manbalarda institutlar, tartibga solish sifati, raqobat, moliya, infratuzilma va boshqaruv uyg‘unligi asosiy yo‘nalishlar sifatida taklif etiladi. IHTT (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)ning investitsiya siyosati bo‘yicha asosiy yondashuvi siyosatni “savollar tizimi” orqali tekshirish, zaif bo‘g‘inlarni aniqlash va islohotlarni ustuvorlashtirishga qaratilgan. Bunda hududiy kesimda ham bir xil mantiq ishlaydi: hududning zaif bo‘g‘ini (masalan, logistika yoki kadrlar) butun investitsion jozibadorlikni pasaytirishi mumkin [7].

Yashil iqtisodiyot adabiyotlari investitsiyalarni “sektorlararo transformatsiya” mexanizmi sifatida yoritadi: “yashillashish” iqtisodiy o‘shishga zid emas, balki samaradorlik, bandlik va ijtimoiy farovonlikka xizmat qilishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi doirasidagi yondashuvlarda yashil investitsiyalar uchun shart-sharoit (enabling environment) masalasi markaziy o‘rinda turadi: aniq qoidalar, bozor signallari, moliyaviy instrumentlar va infratuzilma mavjud bo‘lmasa, yashil texnologiyalar ommalashmaydi [8].

Mamlakatlar kesimida barqaror investitsiya siyosatini kuchaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ko‘pincha “qonunchilik va siyosiy muhitning izchilligi”, “tartibga solishning prognoz qilinishi”, “investor–hukumat munosabatlarining shaffofligi” hamda “barqarorlik mezonlarining integratsiyasi”ga borib taqaladi. Ayniqsa O‘zbekiston holatida barqaror investitsiya bo‘yicha siyosiy-huquqiy bazani mustahkamlash, amaliy tavsiyalarni muvofiqlashtirish va investitsiya bitimlari hamda tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari muhim deb ko‘rsatiladi [9].

Umuman, adabiyotlar uchta xulosani mustahkamlaydi:

1. investitsion jozibadorlik ko‘p omilli;
2. rag‘batlar institutlar o‘rnini bosolmaydi;
3. yashil investitsiyalar uchun barqaror “qoidalar muhiti” talab qilinadi. Ushbu uchlik maqolaning metodologik tayanchi sifatida olinadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot dizayni hududiy kesimda investitsion faollik (IF) va investitsion jozibadorlik (IJ)ni ajratilgan holda baholashni ko'zda tutadi. IF uchun odatda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, o'sish sur'ati, tarmoqlar bo'yicha tarkib, shuningdek jon boshiga investitsiya indikatorlari ishlatiladi; ular investitsiya jarayonining "real oqimi"ni aks ettiradi. IJ esa shart-sharoitlar majmuasi bo'lib, institutlar, infratuzilma, kadrlar, bozor hajmi, raqobat va ekologik barqarorlik indikatorlari orqali o'lchanadi [10].

Metodologik jihatdan maqola ikki qadamlı yondashuvni taklif etadi. Birinchi qadam: IF indikatorlarini to'plash va hududlar bo'yicha taqqoslash (masalan, investitsiya hajmi, investitsiya o'sishi, jon boshiga investitsiya). Bu bosqichda rasmiy statistika ma'lumotlaridan foydalanish tamoyili asos qilib olinadi. Ikkinchi qadam: IJ indeksini tuzish uchun indikatorlar majmuasini shakllantirish va normallashtirish. Normallashtirish maqsadi ko'rsatkichlar turli o'lchov birliklariga ega bo'lgani uchun ularni qiyoslanadigan shaklga keltirishdir.

IJ indeksini tuzishda indikatorlar to'rtta blokka ajratiladi:

1. iqtisodiy salohiyat (YHM/ishlab chiqarish bazasi, bozor hajmi, tadbirkorlik faolligi);
2. infratuzilma (transport, energiya, raqamli infratuzilma);
3. institutsional muhit (tartibga solish barqarorligi, xizmatlar sifati, shaffoflik masalalari);
4. yashil barqarorlik (energiya samaradorligi, resurs tejamlilik, ekologik loyihalar ulushi proksilari).

Bu bloklar IHTT va BMT Atrof-muhit dasturi yondashuvlaridagi "qulay muhit" mantiqiga mos keladi. Bloklar bo'yicha vazn (weight) belgilashda ehtiyotkor yondashuv tanlanadi: agar empirik asos bo'lmasa, teng vazn yoki ekspert vazni ishlatiladi, keyin sezgirlik (sensitivity) tahlili bilan tekshiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlar kesimida investitsion faollik odatda "markazlashuv" tendensiyasiga ega: iqtisodiy bazasi keng, logistika qulay va bozor hajmi katta hududlarda investitsiyalar nisbatan ko'proq jamlanadi. Bu holat Dunning-Lundan yondashuvidagi joylashuv ustunliklari mantiqi bilan mos keladi: investor resurs va bozor bilan birga infratuzilma hamda institutlar sifatini ham hisobga oladi. Demak, IFning yuqoriligi ko'pincha IJning kuchliligi bilan birga keladi.

Investitsion faollikni hududlar bo'yicha uch toifaga ajratish amaliy jihatdan qulay: yuqori, o'rta va past faollik hududlari. Yuqori faollik hududlarida investitsiya oqimi nisbatan barqaror, tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyalashgan va yangi quvvatlar yaratishga yo'naltiriladi. O'rta faollik hududlarida investitsiya tarkibida qisqa muddatli yoki tor doirali loyihalar ulushi yuqori bo'lib, "sakrashlar" (yilda keskin oshish-kamayish) ko'proq uchraydi. Past faollik hududlarida esa investitsiya hajmi yetishmasligi infratuzilma yangilanishini sekinlashtiradi va biznes faolligini cheklaydi [11].

Rasmiy statistika ma'lumotlari asosida IFni baholashda uchta nuqta muhim: (1) umumiy hajm, (2) jon boshiga ko'rsatkich, (3) o'sish sur'ati. Umumiy hajm ko'pincha "katta hududlar" foydasiga og'adi, shu sabab jon boshiga indikator investitsion faollikni adolatiroq ko'rsatadi. O'sish sur'ati esa past bazaga ega hududlarda "sun'iy yuqori" chiqishi mumkin; shuning uchun ushbu uch indikator birgalikda talqin qilinishi lozim.

Investitsion jozibadorlikning infratuzilma bloki hududiy tafovutlarning eng "tez ko'rinadigan" manbai bo'lishi mumkin. Transport-logistika xarajatlari yuqori bo'lgan hududlarda investorning umumiy xarajatlari oshadi, yetkazib berish zanjiri uzilishlari xavfi ortadi va bozorga chiqish vaqti cho'ziladi. IHTT yondashuvlari infratuzilmaga sarmoya kiritishni investitsiya muhitining tayanch sharti sifatida ko'rsatadi. Natijada infratuzilma sifati yuqori hududlar ko'pincha investitsion oqimlarni ham ko'proq tortadi [12].

Institutsional blok bo'yicha natijaviy mantiq shuki: tartibga solish barqarorligi va shaffoflik oshsa, investor risklari kamayadi, risk mukofoti (risk premium) pasayadi va loyihalar ko'payadi. Rag'batlar (imtiyozlar) esa institutsional zaiflikni to'liq kompensatsiya qila olmaydi; bu Blomström-Kokko xulosalari bilan mos: rag'batlar samarasi institutlar va mahalliy absorbtiv salohiyatga bog'liq [13]. Shuning uchun IJni oshirishda institutsional xizmatlar (ruxsatnomalar, ulanishlar, kadastr, sud-huquq ishlari) tezligi va sifatini yaxshilash ustuvor bo'lishi kerak.

Yashil barqarorlik blokida asosiy natija shuki, yashil investitsiyalar hududlar kesimida "tayyor muhit" bo'lgan joylarda tezroq o'sadi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari uchun tarmoq ulanishi, yer ajratish jarayonining aniq qoidalari, energiya bozoridagi signallar va moliyaviy instrumentlar muhim. BMT AMD "yashil iqtisodiyot" yondashuvida ana shu qulay muhit bo'lmasa, yashil investitsiyalar ommaviy tus olmasligi qayd etiladi. Demak, yashil investitsiyalarni oshirish hududiy siyosatda ham institutlar va infratuzilma bilan bevosita bog'liq.

Olingan tahliliy natijalar hududiy investitsiya siyosatida "bir xil paket"dan ko'ra "differensial paket" samaraliroq ekanini ko'rsatadi. Yuqori investitsion faollik hududlarida siyosatning maqsadi investitsiyalarni "ko'paytirish" emas, balki "sifatini oshirish" bo'lishi kerak: yuqori qo'shimcha qiymat, eksport, innovatsiya, yashil



texnologiya va lokal kooperatsiyani kuchaytirish. Past faollik hududlarida esa, avvalo, bazaviy infratuzilma va institutlar mustahkamlanmasa, rag'batlar samarasi cheklangan bo'lib qoladi.

Rag'batlar siyosati bo'yicha xalqaro adabiyotlar "aniq maqsadli, shartli va baholanadigan" yondashuvni tavsiya qiladi. Ya'ni imtiyozlar investitsiya hajmi yoki ish o'rni kabi ko'rsatkichlar bilan emas, balki texnologiya transferi, mahalliy ta'minot zanjiri, kadrlar tayyorlash, energiya samaradorligi kabilarni kuchaytiradigan shartlar bilan bog'lanishi kerak. Aks holda, rag'batlar "budget xarajati" bo'lib qoladi va hududiy rivojlanishga barqaror ta'sir bermasligi mumkin.

Investitsiya muhitini yaxshilashda IHTTning siyosiy yondashuvi muhim: muammo "bitta normani qabul qilish"da emas, balki normaning ijro mexanizmini, idoralararo muvofiqlashtirishni va shaffoflikni ta'minlashdadir. IHTT investitsiya siyosati bo'yicha doiraviy yondashuvda muhitni baholash "savollar" orqali olinadi: bozor ochiqligi, raqobat, soliq, infratuzilma, boshqaruv, korporativ boshqaruv, inson kapitali va h.k. Hududiy darajada ham xuddi shu mantiq ishlaydi: har bir hudud uchun "eng zaif bo'g'in" aniqlanadi va resurslar o'sha joyga yo'naltiriladi.

Yashil investitsiyalarni hududiy siyosatga integratsiya qilishda ikkita yo'l bor: (1) "yashil sektorlar"ni alohida qo'llab-quvvatlash (AES, chiqindi, suv, energiya tejamkorlik), (2) har bir investitsiya loyihasida yashil mezonlarni bosqichma-bosqich joriy etish (energiya audit, emissiya, resurs tejamkorlik). BMT AMD yondashuvi ikkalasini ham qo'llab-quvvatlaydi, ammo asosiy urg'u sharoit yaratish va moliyaviy oqimlarni yashil yo'nalishga burishga qaratiladi. Demak, hududlarda "yashil standartlar"ni keskin joriy etishdan ko'ra, investor uchun tushunarli va prognoz qilinadigan o'tish mexanizmi yaratish muhim.

O'zbekiston holatida barqaror investitsiya bo'yicha siyosiy-huquqiy bazani mustahkamlash, investitsiya shartnomalari va siyosat instrumentlarini "barqaror investitsiya" mezonlariga moslashtirish masalalari dolzarb. IHTTning 2025-yildagi O'zbekiston bo'yicha barqaror investitsiya siyosati islohotlari "yo'l xaritasi" ham aynan shunday yo'nalishlarga urg'u beradi: huquqiy-siyosiy muhit, izchillik, muvofiqlashtirish, shaffoflik va amaliy tavsiyalar [14]. Bu hujjat hududiy darajadagi siyosatga ham tatbiq etiladi: hududiy idoralar investitsiya jarayonida "bir oynali" va prognozli xizmat ko'rsatsa, investor ishonchi ortadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqola doirasida investitsion faollik va investitsion jozibadorlik hududiy kesimda tahlil qilinib, ularning o'zaro bog'liqligi va farqlari konseptual jihatdan asoslandi. Investitsion faollik ko'proq "oqim" va "natija" bo'lsa, investitsion jozibadorlik "shart-sharoitlar majmuasi" sifatida talqin qilindi; amaliyotda esa jozibadorlik oshishi faollikni kuchaytiradi, faollik esa hududning salohiyatini yanada mustahkamlaydi. Yashil iqtisodiyot sharoitida ushbu bog'liqlik yanada kuchayadi: yashil investitsiyalar uchun institutlar, infratuzilma va prognozli siyosat zarur.

Hududiy siyosat uchun asosiy amaliy xulosalar: (1) rag'batlar institutlarni almashtirmaydi, shuning uchun imtiyozlar shartli va baholanadigan bo'lishi kerak; (2) infratuzilma va institutsional xizmatlar sifati investitsiya muhitining tayanchi; (3) yashil investitsiyalarni oshirish uchun enabling environment yaratish zarur; (4) hududlar bo'yicha differensial siyosat paketi qo'llanilishi kerak [2]. Ushbu xulosalar IHTT va BMT AMD yondashuvlari bilan uyg'un bo'lib, O'zbekiston bo'yicha barqaror investitsiya siyosati islohotlari yo'nalishlari bilan ham mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dunning, J. H., Lundan, S. M. Multinational Enterprises and the Global Economy (2nd ed.). Edward Elgar Publishing, 2008.
2. Blomstrom, M., Kokko, A. The Economics of Foreign Direct Investment Incentives. NBER Working Paper No. 9489, 2003.
3. Todaro, M. P., Smith, S. C. Economic Development (12th ed.). Pearson, 2020.
4. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S294975312400047X>
5. https://www.researchgate.net/publication/23779529_Location_and_the_multinational_enterprise_John_Dunning's_thoughts_on_receiving_the_Journal_of_International_Business_Studies_2008_Decade_Award
6. https://www.iisd.org/system/files/publications/rethinking_investment_incentives.pdf
7. https://www.oecd.org/en/publications/oecd-economic-surveys-germany-2025_39d62aed-en/full-report/fostering-regional-development-in-times-of-structural-change_70139953.html
8. <https://www.mdpi.com/2071-1050/17/3/1040>
9. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0096/96_i_20250411_130937_13.pdf
10. <https://inlibrary.uz/index.php/new-uzbekistan/article/view/32182>
11. https://www.researchgate.net/publication/352342649_Investment_Attractiveness_of_a_Region_Evaluation_Practices
12. <https://www.oecd.org/en/topics/investment.html>
13. <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/058fe55b-9397-5c96-b9a2-9f39833667a7>
14. https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/ozbekistonda-investitsiya-siyosatini-barqaror-isloh-qilish-boyicha-yol-xaritasi-amalga-oshiriladi_uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
